

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANIDAN
“AMALIY DASTURLARDAN FOYDALANISH” NOMLI
2-MODULI BO'YICHA

511700- «Boshlang`ich ta`lim va sport-tarbiyaviy ish» ta`lim yo`nalishi
talabalari uchun

MA`RUZALAR MATNI

Urganch 2019

Mundarija

1-Mavzu: Matnli xujjat muharrirlari.

2-Mavzu: Elektron jadval muharrirlari. MS Excel dasturi

3-Mavzu:Multimediyaning asosiy tushungasi. Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari

4-Mavzu:Taqdimotlar muxarrirlari va ularda ishlash.

5-Mavzu: Kompyuter grafikasi va uning turlari.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

4-MODUL. AMALIY DASTURLARDAN FOYDALANISH.

Mavzu: Matnli xujjat muharrirlari.

Reja:

1. Matnli hujjat muharrirlari, ularning vazifasi va imkoniyatlari.
2. Matnli hujjatlarni yaratish va tahrirlash. Matn bo'laklari bilan ishlash (qidirish, ko'chirish, siljitish, almashtirish va o'chirish).
3. Ro'yxatlar va jadvallarni yaratish hamda bezash
4. Elektron hujjatlarda grafik va formula ob'ektlaridan foydalanish.

Kalit so'zlar: matn protsessorlari, hujjat, format, shrift, so'z, satr, abzas, matn. **Matn protsessorlari haqida.** Matn protsessorlari matnning faqat mazmuni emas, balki tashqi ko'rinishi ham katta ahamiyatga ega bo'lganda qo'llaniladi. Masalan, matnga turli rasm va jadvallar joylashtirish, belgilarning o'lchami, rangi va ko'rinishlarini o'zgartirish va hokazo. Matn protsessorlari, odatda, rasmiy hujjatlar tayyorlashda ko'p qo'llaniladi. Matn protsessori yordamida tayyorlangan matn **hujjat** deb yuritiladi. Turli matn protsessorlarida matnni bezatish uchun turli kodlar qo'llaniladi. Bunday hollarda hujjatlar har xil formatga ega deyiladi. Shu sababli

formatlangan matnli hujjatlarni bir matn protsessoridan boshqasiga olib o'tishning har doim ham imkoniyati bo'lmaydi.

Microsoft word 2013 dasturi menyu bo'limlari

Muharrir (lotin tilida-tartibga keltirilgan)-kompyuter ob'ektlari (matn,jadval,grafik, dastur) bilan ishlashni amalga oshiruvchi dasturiy ta'minot tizimidir. Matnli hujjat tayyorlaydigan dasturiy guruhni asosan ikkiga ajratish mumkin. Matn muharriri va matn protsessori.

Matn muharriri deb asosan matnli fayllarni formatlash elementlarini ishlatmasdan tayyorlaydigan dasturga aytiladi. Formatlash elementlari deganda matn qismlarini har xil shriftlar bilan ajratib ko'rsatilmaganligi tushuniladi. Bunday muharrirlar asosan kompyuter dasturlari matnini yaratishda ishlatiladi. Matn protsessori matnni formatlash, hujjatga grafika va boshqa ob'ektlar joylashtirish imkonini beradigan dasturlardir. Bunday turdagi muharrirlarga Word matn muharririni keltirish mumkin.


Microsoft Word – MS Office paketi tarkibiga kiruvchi universal matn muharriri bo'lib, unda matnlarni kiritish, ular bilan ishlash uchun qulay imkoniyatlar yaratib berilgan. Bu matn muharririda o'zidan oldingi matn muharrirlarida yaratilgan matnlarni import qilish imkoni berilishi bilan bir qatorda o'zida yaratilgan matnlarni MS Office dasturiy mahsulotining boshqa muharrirlariga, Web sahifa ko'rinishida va boshqa ko'rinishlarda eksport qilish imkoni mavjud. Matnlarni tayyorlashda qulayliklari juda katta bo'lgan zamonaviy dasturlardan biri - Microsoft Wordda tayyorlanadigan matnda rasm, formula, grafiklar, ovoz yozilgan fayllar, video-klippnlarni joylashtirish imkoni mavjud.

Word 2013 dasturi ishga tushgach ekranda ishchi soha hosil bo'ladi.

Microsoft Word 2013 Menyu satri quyida aks ettirilgan.



Microsoft Word 2003 dasturi menyu bo'limi:



Microsoft Word 2007 dasturi menyu bo'limi:



Microsoft Word 2010 dasturi menyu bo'limi:




Microsoft Word 2013 Asosiy menyu qatoriga quyidagilar kiradi: *Fayl, Glavna, Vstavka, Dizayn, Razmetka Stronisiy, Vid, Vstavka, Ss'iki, RaSs'iki, Ritsenzirovaniye*

Fayl menyusida hujjat bilan ishlash buyruqlari mujassamlashgan bo'lib ular orqali hujjat yaratish, saqlangan hujjatni ochish , joriy hujjatni yopish , hujjatni saqlash, boshqa nom bilan saqlash , Internet sahifasi shaklida saqlash , hujjatlarni mazmuni bo'yicha qidirish , bir faylning o'zida bir nechta hujjatni (o'zgartirish kiritilish vaqtiga ko'ra) saqlash va ochish, Internetda hujjatning qanday ko'rinishini ko'rib o'tish, hujjatni (qog'oz turini, hoshiyani) o'zgartirish, printerdan chop etishdan oldin ko'rish , chop etish, boshqa dasturlarga (electron pochtaga) hujjatni yuborish, hujjat haqida ma'lumot olish, oldin ochilgan hujjatlarni ro'yxati va dasturdan chiqish kabi menyu punktlari bor.


Windows8 OTda fayl bo'limi boshqa operatsion sistemalardan farqli ravishda quydagicha bo'ladi.

Microsoft Word 2013 dasturida oldingi dasturlardan farqli ravishda pravka bo'limi mavjud emas.

Главная menyusda Word dasturida bajariladigan asosiy amallar ketma- igi joylashgan bo'lib, bu menyuga foydalanuvchi eng ko'p murojaat qiladi. Главная menyu yordamida joyni kesish, yozuv shriftini o'zgartirish, unga rang berish, quyuq rangda yozish qo'lyozma shaklida yozish, ostiga chizib yozish, satrlar orasidagi masofani tanlash, va malum matnga joylashuv o'zgarishlarini kiritish mumkin.



Vid menyusidan hujjatni ko'rinishini, jumladan oddiy ko'rinishda, web shaklda, sahifa shaklida, bo'limlarni ko'rish va tahrirlash shaklida , instrumentlar panelidan panellarni (Standartnaya) tanlash, chizg'IchnI xosil qilish yoki berkitish (*Lineyka*), hujjatni sxematik shaklda ko'rish, hujjat kolontitullarini tahrirlash, hujjatni butun ekran bo'yicha tahrirlash, hujjatni masshtablash kabi punktlar mavjud.




Vstavka menyusidan hujjatga ob'ektlarni yoki sahifalarni qo'yish, hujjatni betlash, joriy vaqt va kunni qo'yish, avto matn, klaviaturada yo'q belgilarni, mundarija va ko'rsatkichlarni, rasmlarni, diagrammalarni, yozuvli ramka, matnli faylni, boshqa dasturlardagi fayllarni yaratish yoki qo'yish punktlaridan foydalanish mumkin.




Tablitsa menyusi jadvallar bilan ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, bulardan jadvalni chizish, jadval, ustun va satrlarni qo'yish, yoki aksincha o'chirish va

ajratish, kataklarni birlashtirish yoki bo'lish, jadval chetlarini avtotekislash, matnni jadvalga yoki aksincha jadvalni matnga aylantirish, jadvaldagi ma'lumotlarni saralash, formulalar ishlatish, jadval xususiyatlarini o'zgartirish singari vazifalar mujassamlashgan.



Razmetka stranits menyusida joriy ishlanayotgan hujjatga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Bular quyidagilar: varaqning farmatini “ориентация” bo'limi yordamida albomnaya holatiga o'tkazish yoki aksincha, knijnaya holatini tanlash, matinni kolonkalariga ajratish, varaqlar orasidagi masofani tanlash va o'zgartirish, matnni interval va hoshiya bilan jihozlash mumkin.



Dizayn matnning dizaynini unga turli o'zgartirishlar kiritishni, joriy holatni va unga turli qo'shimcha eskizni kiritish va matinni turli shrift ranglarda tasvirlash imkonini beradi.

Bu menyu yordamida foydalanuvchi yaratadigan xujjatni chiroyli va ko'rkam qilish imkoniyatiga ega.



Ko'rinib turibdiki, har bir menyu ma'lum vazifani o'zida mujassamlashtirgan.

Xujjatlarni tahrir qilish

Matn yozilganda dastlab u xatoliklardan holi bo'lmaydi. Xatto yozuv mashinkasida ishlash bo'yicha katta tajribaga ega kotibalar ham matn terishda hatolikka yo'l qo'yadilar. Kitob yozish yoki dastur tuzishda esa ish jarayonida tez-tez fikr o'zgarib turadi. Bu holda umuman bexato yozilgan matnga ham tuzatishlar kiritiladi.

Qo'lda yoki yozuv mashinkasida yozilgan matnga tuzatish kiritish mushkul, aksariyat hollarda buning imkoniyati ham bo'lmaydi. Matn muharrirlari va matn protsessorlari esa matnlariga ihtiyoriy tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi. Matnli hujjatga tuzatishlar kiritish matnni tahrir qilish deyiladi.

Matnni tahrirlashda eng ko'p bajariladigan ish - bu ortiqcha belgini o'chirish yoki tushib qolgan belgini oraga joylashtirish.

Ortiqcha belgini bir necha usul bilan o'chirish mumkin. Mazkur jarayonni bosqichma bosqich ko'rib chiqamiz.

1. Yurgich o'chiriladigan belgi oldiga olib kelinadi. Buning uchun yurgich harakatini boshqaruvchi klavishalaridan foydalanamiz.

2. Yurgichni matnning kerakli joyiga sichqoncha yordamida ham o'rnatish mumkin. Buning uchun sichqon ko'rsatkichi matnning kerakli eriga olib boriladi va sichqonning chap tugmasi bosiladi.

3. Yurgich kerakli joyga qo'yilgach bita yoki bir nechta belgini o'chirish mumkin. Buning uchun DELETE yoki BACKSPACE klavishalari qo'llaniladi. Ularning ishlashi turlicha.

4. BACKSPACE klavishasi bilan yurgichdan chapda joylashgan belgilar o'chiriladi. Ba'zi klaviaturalarda BACKSPACE yozuvi o'rniga mazkur klavishga chapga yo'nalgan chiziq chizilgan.

5. DELETE klavishasi bilan yurgichdan o'ngda joylashgan belgilar o'chiriladi.

Matnga yangi belgilarni kiritish quyidagicha bajariladi:

1. Yurgich matnni kerakli eriga o'rnatiladi.


2. Kerakli belgilar klaviaturada teriladi.



Aksariyat matn muharrirlarida matnni tahrir qilishning ikki holati mavjud: oraga joy-lashtirish va o'rniga qo'yish holatlari. Bu holatlar INSERT klavishasi yordamida almashtiriladi. Oraga qo'yish holatida belgilar matn orasiga joylashadi va matn o'ngga suriladi. O'rniga qo'yish holatida mavjud matn belgilari yangi kiritilgan belgilar bilan almashtiriladi. YA'ni eski belgilar o'chib o'rniga yangilari yoziladi. *Matnda belgilangan biror qism blok deyiladi. Odatda blok invers ko'rinishda tasvirlanadi. Belgilangan blok ustida turli amallar (o'chirish, nusxalash, ko'chirib o'tkazish, formatlash, shiriftini o'zgartirish va boshqalar) bajarish mumkin..*

Tahrir qilish jarayonida matnning ma'lum qismi bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bu holda matnni kerakli qismi belgilab olinadi. Belgilangan qism odatda blok deyiladi. Odatda blok invers ko'rinishda tasvirlanadi. Belgilangan blokni o'chirish, nusxalash, ko'chirib o'tkazish, formatlash, shiriftini o'zgartirish mumkin. Matndan bir necha usul bilan blok ajratish mumkin.

Blok olishning eng qulay usuli matnning belgilanadigan qismi ustida sichqonchani yurg'izishdir. Sichqoncha ko'rsatkichini matnning belgilanadigan qismi boshiga olib kelinadi va sichqonchani chap tugmasini bosgan holda belgilanadigan qism oxiriga olib kelinsa, sichqon boshlang'ich holati bilan oxirgi holati orasidagi matn belgilanadi (blokka olinadi).


Blokni klaviatura yordamida ajratish ham mumkin. SHIFT klavishi bosilgan holda yurgich xarakatlantirilsa matn qismi blokka olinadi.

Matnning belgilangan qismini o'chirish. Matnning o'chirilishi kerak bo'lgan qismi blokka olinadi va DELETE klavishi bosiladi yoki standart uskunalar panelida  "qirqib olish" tugmasi bosiladi.

Matnning belgilangan qismidan nusxa ko'chirish. Matnning nusxa ko'chiriladigan qismi blokka olinadi. Standart uskunalar panelida "nusxalash" tugmasi bosiladi yoki "to'g'rilash" menyusidagi "nusxalash" buyrug'i beriladi. Blokda matn yordamchi hotira (bufer)ga joylashadi. Buferdagi axborotni matnning biror eriga qo'yish uchun yurgich matnning tanlangan eriga qo'yiladi va "to'g'rilash" menyusidagi "oraga joylashtirish" buyrug'i beriladi. Yuqoridagi amallarni "standart uskunalar panelidagi  "nusxalash" va  "oraga joylashtirish" tugmalarini bosish orqali bajarish ham mumkin.

Matnning belgilangan qismini matnning ixtiyoriy yeriga ko'chirib o'tkazish. Matnning ko'chirib o'tkaziladigan qismi blokka olinadi. Standart uskunalar panelidagi "qirqib olish" tugmasi bosiladi. Natijada matnning belgilangan qismi ekrandan o'chadi va buferga joylashadi. Yurgich matnning kerakli joyiga qo'yilib standart uskunalar panelidagi "oraga joylashtirish" tugmasi bosiladi. Matnning belgilangan qismini matnning ixtiyoriy yeriga ko'chirib o'tkazishning yana bir usuli: sichqon yurgichini belgilangan blokning ixtiyoriy nuqtasiga olib kelinadi. Sichqonning chap tugmasini bosib turilgan holda sichqon yurgichini matnning kerakli joyiga olib kelinadi va sichqon tugmasi qo'yib yuboriladi.

Matnning belgilangan qismini formatlash. Formatlash uchun matnning qismi blokka olinadi. Format uskunalar panelidan "chap tomonga", "o'rtaga", "o'ng tomonga" va "kenglik bo'yicha joylashtirish" tugmalaridan biri tanlanib bosiladi.



Ko'rinish shakli tugmalari

Formatlash

Matnning belgilangan qismidagi yozuv ko'rinishini o'zgartirish. Yozuv shaklini o'zgartirish uchun matnning qismi blokka olinadi. Format uskunalar panelidan "qalin", "og'ma" va "ostiga chizish" tugmalaridan biri tanlanib bosiladi.

Matnning belgilangan qismidagi shrift o'lchamini o'zgartirish. Shrift o'lchamini o'zgartirish uchun matnning kerakli qismi blokka olinadi. Format menyusidan "shrift" bo'limiga o'tiladi. Ekranda hosil bo'lgan "shrift" oynasidagi "o'lcham" (размер) darchasiga kerakli o'lcham yoziladi yoki taklif etilgan o'lchamlardan biri tanlanadi. Shrift o'lchamini o'zgartirishning yana bir usuli bo'lib, buning uchun format uskunalar panelidan "o'lcham" (размер) tugmasi bosiladi va

taklif etilgan o'lchamlardan biri tanlanadi yoki ixtiyoriy o'lcham qiymati klaviaturadan kiritiladi.


Matnning belgilangan qismidagi shrift rangini o'zgartirish. Shrift rangini o'zgartirish uchun matnning qismi blokka olinadi. Format uskunalar panelidan "shrift rangi" (Цвет шрифта) tugmasi bosiladi va chiqqan ranglardan biri tanlanadi.

Xujjatlarda rasmlar va jadvallar bilan ishlash

Ayrim hujjatlarni tayyorlashda jadval va rasmlardan ham foydalaniladi. Gazeta, jurnal yoki kitob sahifalarida bunday holni ko'p uchratgansiz. Jumladan qo'lingizdagi darslik sahifalarida ham turli rasm va jadvallar mavjud.

Turli chizma va rasmlar hujjatlarni ko'rgazmali, qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Hujjatlarga rasmlarni turli usul bilan joylashtirish mumkin. Shulardan biri faylda saqlanayotgan tayyor rasmlarni matnli hujjatga joylashtirish. Word matn protsessori bu vazifani qanday amalga oshirishini ko'rib chiqamiz.

Word matn protsessori dasturiy ta'minotiga 50 dan ziyod rasmlar kirgan



bo'lib, ulardan turli hujjatlarni bezatishda foydalanish mumkin. Buning uchun yurgich matnning rasm joylashtirilishi kerak bo'lgan eriga o'rnatiladi. So'ngra "joylashtirish" menyusidan "rasm" (рисунок) buyrug'i tanlanadi. Ekranda "Rasm joylashtirish" muloqat oynasi hosil bo'ladi.

Mazkur muloqat oynasi rasmi fayllar nomlari ro'yxatini ko'rsatib turadi. Ushbu ro'yxatdan biror faylni belgilab, undagi rasm tasvirini ko'rish mumkin. Bu kerakli rasmni tanlash uchun juda qulay. Rasm tanlangach, "OK" tugmasi bosiladi. Natijada matn terilayotgan sahifaning yurgich turgan joyida tanlangan rasm hosil bo'ladi.

Hosil bo'lgan rasmdan nusxa olish, uni o'chirish va o'lchamlarini o'zgartirish mumkin. Buning uchun rasm belgilab olinadi. Rasmni belgilash uchun sichqoncha ko'rsatkichi rasm ustiga olib kelinib, sichqonchani chap tugmasi bosiladi. Natijada rasm chetida xoshiya paydo bo'ladi.

Belgilangan rasmdan nusxa ko'chirish yoki uni o'chirish belgilangan matnlarni nusxalash va o'chirish kabi amalga oshiriladi. Belgilangan rasm o'lchamini o'zgartirish uchun sichqoncha ko'rsatkichi rasm xoshiyasining ixtiyoriy burchagiga o'rnatiladi. So'ngra sichqonchani chap tugmasi bosilgan holda qarama-qarshi burchak tomonga siljitsa, rasm kichrayadi, aksincha kattalashadi.

Aksariyat hujjatlarga rasmlar bilan bir qatorda jadvallar joylashtirishga xam to'g'ri keladi. Ular turli-tuman bo'lishi mumkin. Masalan, maktabingizdagi dars jadvali, kundalik daftaringiz yoki sinf jurnali sahifasi, futbol turniri jadvali va hokazo. Bu jadvallarning ko'rinishi ham, mazmuni ham turlicha. Lekin ularning hammasi ma'lum miqdordagi ustun va satrlardan tashkil topgan.

Demak, ixtiyoriy jadval n ta ustun va m ta satrdan iborat bo'lar ekan. Ular o'z navbatida kataklardan tashkil topadi. Jadvalning asosiy elementi - bu katak. Katakni o'ziga xos mikrohujjat deyish mumkin. Katakka matn yozish, uni

formatlash, xatto rasmlar joylashtirsa bo'ladi. Unga faqatgina yangi jadval joylashtirib bo'lmaydi.

Jadval katagiga kiritilgan axborotlar ham jadval elementi hisoblanadi.

Jadvallar ustida quyidagi asosiy amallarni bajarish mumkin:

- Jadvalga yangi ustunlar qo'shish;
- Jadvalga yangi satrlar qo'shish;
- Jadval kataklarini birlashtirish;
- Jadval kataklarini bo'laklarga ajratish;
- Jadval elementlarini saralash.

Masalan, informatika to'garagi a`zolarining familiyasi, ismi, tug'ilgan yili va yashash joyi haqidagi ma`lumolar aks ettirilgan jadval tuzish kerak bo'lsin. Word matn protsessorida bu quyidagicha amalga oshiriladi:

Avvalambor jadval nechta ustun va satrdan iborat bo'lishini aniqlab olish lozim. Agar to'garak a`zolari 9 kishidan iborat bo'lsa, bizga 4ta ustun va 10ta satrli jadval kerak bo'ladi. Birinchi satr kataklariga odatda ustunlarda joylashgan ma`lumotlar uchun sarlavxalar, birinchi ustunga esa tartib raqamlari yoziladi.

Ustun va satrlar soni aniqlangach, "Jadval" menyusining "jadval joylashtirish" buyrug'i tanlanadi. Hosil bo'lgan muloqot oynasida ustunlar va satrlar soni kiritiladi. "OK" tugmasi bosilgach, quyidagi jadval hosil bo'ladi:

Jadval kataklari ma`lumotlar bilan to'ldiriladi.

T/r	Familiya, Ismi	Tug'ilgan yili	Yashash joyi
1	Asadov I.	1987	Markaz-1,10uy 5kv.
2	Begmatov Sh.	1987	Markaz-1,10uy 9kv.
3	Valijonov M.	1988	Markaz-1,13uy 25kv.
4	Davlatov A.	1989	Markaz-2,51uy 64kv.
5	Jo'raev T.	1987	Markaz-1,19uy 54kv.
6	Ikromov S.	1986	Markaz-2,1uy 3kv.
7	Saidov X.	1989	Markaz-1,7uy 5kv.
8	Xakimov K.	1987	Markaz-1,40uy 58kv.
9	Sharipov B.	1986	Markaz-2,11uy 75kv.

Jadvaldagi ma`lumolarning hajmiga qarab ustunlarning kengligini o'zgartiramiz. Buning uchun sichqoncha ko'rsatkichi ustunlarning chegara chizig'iga olib kelinadi (sichqoncha ko'rsatkichi ko'rinishga keladi). Sichqonchanning chap tugmasi bosilgan holda kerakli tomonga siljtiladi. Natijada jadvalimiz quyidagi ko'rinishga keladi:

T/r	Familiya, Ismi	Tug'ilgan yili	YAshash joyi
1	Asadov I.	1987	Markaz-1, 10uy 5kv.
2	Begmatov Sh.	1987	Markaz-1, 10uy 9kv.
3	Valijonov M.	1988	Markaz-1, 13uy 25kv.
4	Davlatov A.	1989	Markaz-2, 51uy 64kv.
5	Jo'raev T.	1987	Markaz-1, 19uy 54kv.
6	Ikromov S.	1986	Markaz-2, 1uy 3kv.
7	Saidov X.	1989	Markaz-1, 7uy 5kv.
8	Xakimov K.	1987	Markaz-1, 40uy 58kv.
9	Sharipov B.	1986	Markaz-2, 11uy 75kv.

Jadvallar ustida bajariladigan asosiy amallardan biri - undagi ma'lumotlarni saralash-dir. Ko'rayotgan misolimizda to'garak a'zolarini tug'ilgan yili bo'yicha o'sish tartibida saralash kerak bo'lsin. Buning uchun to'garak a'zolarining tug'ilgan yillari yozilgan 3-ustun belgilab olinadi (avvalgi paragrafda ko'rsatilgan blokka olish amali). "Jadval" menyusidan "saralash" buyrug'i tanlanadi. Hosil bo'lgan muloqot oynasida "o'sish tartibida" buyrig'i tanlanadi. "OK" tugmasi bosilgach, jadvalimiz quyidagi ko'rinishga keladi.

T/r	Familiya, Ismi	Tug'ilgan yili	YAshash joyi
6	Ikromov S.	1986	Markaz-2, 1uy 3kv.
9	Sharipov B.	1986	Markaz-2, 11uy 75kv.
1	Asadov I.	1987	Markaz-1, 10uy 5kv.
2	Begmatov Sh.	1987	Markaz-1, 10uy 9kv.
5	Jo'raev T.	1987	Markaz-1, 19uy 54kv.
8	Xakimov K.	1987	Markaz-1, 40uy 58kv.
3	Valijonov M.	1988	Markaz-1, 13uy 25kv.
4	Davlatov A.	1989	Markaz-2, 51uy 64kv.
7	Saidov X.	1989	Markaz-1, 7uy 5kv.













Xujjatlarda diagramma va grafiklarni joylashtirish

Biz avvalgi paragrafda matnli hujjatlarga rasmlarni joylashtirishni ko'rib chiqdik. Uncha murakkab bo'lmagan chizmalarni matn protsessorining imkoniyatlaridan foydalanib chizish ham mumkin.


Standart uskunalar panelidagi "chizish" (risovanie) tugmasi bosilsa, ekranning quyi qismida "chizish" uskunalar paneli hosil bo'ladi.



Mazkur paneldagi asosiy tugmalar va ularning vazifalari bilan tanishamiz:


-  to'g'ri chiziq chizish;
-  to'g'ri to'rtburchak chizish;
-  ellips chizish;
-  yoy chizish;
-  siniq chiziq chizish;
-  shakl ichini bo'yash;
-  chiziq turini o'zgartirish;
-  chiziq rangini o'zgartirish;
-  shakllarni burish;
-  shakllarni akslantirish;
-  shakllarni birlashtirish;
-  birlashtirilgan shakllarni ajratish.

To'g'ri chiziq chizish

"Chizish" uskunalar panelidagi -"chiziq" tugmasi bosiladi. Sichqon ko'rsatkichi + ko'rinishga keladi. Sichqon ko'rsatkichi chiziladigan chiziqning boshlang'ich nuqtasiga olib kelinadi va sichqonning chap tugmasini bosib turib chiziqning oxirgi nuqtasiga olib borib qo'yib yuboriladi.





To'g'ri to'rtburchak chizish.

"Chizish" uskunalar panelidagi - "to'g'ri to'rtburchak" tugmasi bosiladi. Sichqon ko'rsatkichi + ko'rinishga keladi. Sichqon ko'rsatkichi chiziladigan to'rtburchakning chap yuqori burchagiga olib kelinadi va sichqonning chap tugmasini bosib turib to'rtburchakning o'ng pastki burchagiga olib borib qo'yib yuboriladi. Umuman olganda chizishni to'rtburchakning ixtiyoriy burchagidan boshlash mumkin. Chizish to'rtburchakning qaysi burchagidan boshlansa unga qarama qarshi burchagida tugatiladi.




Ellips chizish.



"Chizish" uskunalar panelidagi - "ellips" tugmasi bosiladi. Sichqon ko'rsatkichi + ko'rinishga keladi. Yuqorida ko'rsatilgandek (to'rtburchak chizilgandek) amallar bajariladi. Ya'ni sichqon ko'rsatkichi hayolan to'rtburchak bor deb shu to'rtburchakning biror burchagiga sichqon ko'rsatkichi olib kelinadi va sichqonning chap tugmasini bosib turib diagonal bo'yicha qarama-qarshi burchagiga olib borib qo'yib yuboriladi.




Yoy chizish


"Chizish" uskunalar panelidagi - "yoy" tugmasi bosiladi. Ellips chizilgandagi amallar bajariladi. Faqat ellips o'rniga yoy chiziladi.

Belgilangan chizmarangini o'zgartirish uchun "Chizish" uskunalar panelidagi - "chiziq rangi" tugmasi bosiladi va taklif etilgan ranglardan biri


tanlanadi. Belgilanganchiziq turini o'zgartirish uchun "Chizish" uskunalar panelidagi - "chiziq turi" tugmasi bosiladi va taklif etilgan chiziq turidan biri (tekis chiziq, shtrix chiziq, yo'nalishli chiziq va xokazo) tanlanadi. Belgilangan shaklni bo'yash uchun "Chizish" uskunalar panelidagi - "bo'yash rangi" (svet zalivki) tugmasi bosiladi va taklif etilgan ranglardan biri tanlanadi. Belgilangan shaklni akslantirish yoki burish uchun "Chizish" uskunalar panelidagi "gorizontal akslantirish", "vertikal akslantirish" yoki "burish" tugmalaridan biri bosiladi.



berilgan shakl




gorizontal aksi




vertikal aksi

Hujjatlarda jadval, rasm va chizmalarning bo'lishi uni shubhasiz chiroyli va ko'rgazmali ko'rinishga keltiradi. Masalan, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini ifodalovchi ma'lumotlarni oddiy matn ko'rinishida tasvirlash bilan jadval ko'rinishida tasvirlash orasida katta farq bor. Jadval ko'rinishida berilgan ma'lumotlar ko'rgazmali bo'lishi bilan birga tushunarliroq ham bo'ladi. Ammo bu ma'lumotlarni grafik (gistogramma) ko'rinishida tasvirlash yanada samaralidir.

WordArt tayyor yozuvlarning 30 hil kolleksiyasidir. Bu, matnni chiroyli, ajralib, ko'rsatib turishga hizmat qiladi. WordArt imkoniyatidan foydalanishingiz uchun  tugmasini bosasiz va ekranga chiqqan kolleksiyalardan birini tanlab OK tugmasini bosasiz.



Ekranga chiqqan muloqot oynaga kerakli matnni terasiz, shriftlarini o'zgartirasiz va OK tugmasini bosasiz.




Tayyor bo'lgan matnni quyida keltirilgan asboblar paneli orqali imkoniyatlarini o'zgartirish mumkin.



Formulalar bilan ishlash.

Microsoft Wordning yana bir chiroyli imkoniyatlaridan biri, bu matematik ifodalarni yozish imkoniyatidir. Matematik ifodalarni yozish uchun maxsus ilova – Microsoft Equation dan foydalaniladi. Uni ishga tushirish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajaramiz:

Вставка → Объект. Ekranda programmalar ro'yxati - OLE serverlar paydo bo'ladi. Bu ro'yxat ichidan Microsoft Equationni belgilaymiz, OK ni bosamiz. Shundan so'ng ekranda quyidagi oyna paydo bo'ladi:



Bu oyna orqali bizga kerakli ma'lumotni belgilaymiz va uni to'ldiramiz.

Savol va topshiriqlar

1. Matnning belgilangan qismi ustida qanday amallar bajarish mumkin?
2. Matnning belgilangan qismidan nusxa ko'chirish nima va u qanday amalga oshiriladi?
3. Matnning belgilangan qismidagi yozuv ko'rinishi qanday o'zgartiriladi?
4. Matnning belgilangan qismidagi shrift o'lchami qanday o'zgartiriladi?
5. Matnning belgilangan qismidagi shrift rangi qanday o'zgartiriladi?
6. Jadval katagiga nimalarni joylashtirish mumkin?
7. Jadval katagiga nimani joylashtirib bo'lmaydi ,
8. Word matn protsessorida chizmalar chizish uchun qaysi uskunalar panelidan foy-dalaniladi?
9. "Chizish" uskunalar paneli yordamida qanday amallarni bajarish mumkin?
10. Chizish amallaridan foydalanib uycha rasmini chizing.

Mavzu: Elektron jadval muharrirlari. MS Excel dasturi

Reja:

1. Elektron jadval muharrirlari, ularning vazifasi va imkoniyatlari. Asosiy tushunchalar: katak, diapazon, sahifa, satr va ustun.
2. Ma'lumotlar turlari va formatlari. Ma'lumotlarni kiritish va taxrirlash. Elektron jadvallarda grafik o'ektlardan foydalanish.
3. Elektron jadvallarda hisoblashlarni bajarish. Funksiyalar va formulalar.

A. Jadval protsessori microsoft Excel imkoniyatlari.

Excel programmasini ishga tushirish

Excelning hujjati ixtiyoriy nomdagi va .xlc kengaytmali fayldir. Har bir .xlc kengaytmali faylda 1dan to 255 elektron jadval joylasha oladi. Bunday EJni ishchi varaqa (Sheet) deb ataymiz. Excelda EJ 256 ustun (column) va 65536 satr (Row)dan iborat bo'lib kompyuter xotirasiga joylashadi. Ustun va satrlar kesishuvidan EJ ning struktura elementi bo'lmish katak (Cell) hosil bo'ladi. Ana shu kataklarga matn yoki raqam, yoxud matematik formulalar yoziladi. Masalan: A 1,F8, C24, AA2...

Excel programmasini xotiraga yuklash uchun:

- a) kursorni ekrandagi Microsoft Excel piktogrammasi Xga qo'yamiz;
- b) «sichqoncha» ning chap tugmasini 2 marta bosamiz

SHunda bir necha daqiqadan keyin ekranda Excel programmasining oynasi hosil bo'ladi. Bu oyna quyidagi asosiy elementlardan iborat:

Asosiy menyu qatori - bajarilishi mumkin bo'lgan buyruqli harakatlar ro'yxati.

Standart vositalar qatori—buyruqlarga murojaatni tezlashtirish uchun maxsus piktogrammalar majmui.

Formatlash vositalari qatori-kataklarga joylashgan ma'lumotlar ustida ishlashni tashkil qilish buyruqlari majmui.

Formula qatori - jadval kataklariga ma'lumotlarni kiritish va taxlil qilish.

Sahifadan - sahifaga o'tkazish belgilari – sahifalash

jarayonini aks ettiruvchi tugmalar.

Faol katak - ayni paytda kursor turgan katak.

Exsel menyusi

Excelning gorizontal menyusi 8 punktdan iborat bo'lib, uning har biri ish bajaruvchi qator buyruqlar majmuidan tashkil topgan:

File Edit View Insert Format Tools Data Window

Masalan, menyuning File punkti quyidagi buyruqlarni o'z ichi-ga oladi: **New** (yangi ish kitobini ochish), **Open** (mavjud ish kitobini ochish), **Close** (joriy ish kitobini yopish), **Save** (joriy ish kitobni xotirada saqlash), **Save as** (joriy ish kitobini yangi nom bilan saqlab qo'yish yoki boshqa bir katalogga joylashtirish), **Save Workspase** (berilgan konfiguratsiyada ishlash imkoniyatini saqlagan holda ekranning ko'rinishini va sistema sozlanish holatini saqlash), **Page Setap** (ishchi sahifasini formatlashga oid parametrlardan iborat dialog oynasini hosil qilish), **Print**

Preview (bosmaga tayyorlangan hujjatni sahifaga joylashishini oldindan ko'rish), **Print** (faylni bosmaga chiqarish).

Edit punkti quyidagi buyruqlar bilan ish yuritadi:

Undo Entry (ma'lumotlarni o'zgartirishga olib kelgan oxirgi amalni bekor qilish), **Cut** (belgilangan fragmentni ish kitobidan olib tashlash), **Sopy** (nusxa olish), **Past** (kursor turgan joyga almashinuv buferida saqlanayotgan ma'lumotlarni qo'yish), **Past Special** (bir necha katakdan nusxa olib qo'yishda ishlatiladi), **Fill** (kataklar blokini talab asosida to'ldirish), **Clear** (katakarni mavjud qiymatlardan tozalash), **Delete** (belgilangan katakdagi parametrlarning biror qiymatini olib tashlash), **Delete Sheet** (ish kitobidan ishchi sahifasini yo'qotish), **Find** (qidirib topish), **Replace** (qidirib topib almashtirish), **Go To** (qo'shni bo'lmagan bir blokdan ikkinchisiga o'tish).

View punktida quyidagi buyruqlar mavjud: **Formula Bar** (ekranga joriy katak va undagi formulani o'zida aks ettiradigan bo'limni o'rnatish), **Statys Bar** (ekranga katak qiymatini o'rnatish), **Full Screen** (jadvalni butun ekran bo'yicha kengaytirish), **Zoom** (masshtab), **Tool Bars** (ekranda bir qator vositalar panelini hosil qilish).

Insert punktda bajariladigan buyruqlar mazmuni: **Cells** (yangi katak qo'yish), **Rows** (yangi satr qo'yish), **Solums** (yangi ustun qo'yish), **Work sheet** (yangi ishchi sahifa qo'shish), **Charf** (diagramma hosil qilish), **Makro** (modul yoki muloqot oynasi sahifasini yaratish), **PageBreak** (avtomatik ravishda sahifalarga ajratish), **Funstion** (funktsiya ustasi muloqot darchasi ochish), **Name** (katakarni nomlash), **Note** (katak uchun izoh), **Picture** (rasm qo'yish), **Map** (geografik karta qo'yish), **Объект (OLE texnologiyasini joriy qilish).**

Format punkti buyruqlarining mazmuni: **Cells** (katakarni formatlash), **Row** (satr o'lchamini o'zgartirish, ekrandan olib tashlash), **Column** (ustun o'lchamini o'zgartirish), **Sheet** (ish kitobi sahifalarining xususiyatlarni o'zgartirish), **Auto Format** (ma'lumotlarni jadval ko'rinishida formatlash), **Style** (stilni boshqarish imkoniyati).

Tools punkti buyruqlarning mazmuni: **Spelling** (imlolarini tekshirish), **Auditing** (katakarning o'zaro bog'likligini va formula ma'lumotlaridagi xatolikni ko'rsatadi), **Goad Suk** (ko'rsatilgan simvollar ketma-ketligini avtomatik ravishda o'zgartiradi), **Solver** (parametrlarni tanlash), **Skenarios** (yechiladi-gan masala stsenariysi tuziladi), **Protections** (himoya vositasi), **Record Makro** (makrokomandalar bilan ishlash).

Data punkti buyruqlari mazmuni muloqot darchasidan tanlab olingan holda bajariladi.

Windows punkti buyruqlari bevosita ma'lumotlar bilan ishlashga mo'ljallangan: **Разположить** buyrug'i—muloqot darchasi bo'yicha birnecha hujjatlar, ob'ektlar yoki ularning ma'lum bir qismlari bilan bir vaqtning o'zida ishlab, ularni alohida oynalarga joylashtirilgan holda ekranga chiqarib beradi. **Новое** buyrug'i—bir ish kitobi uchun bir necha oyna hosil qilishni amalga oshiradi. **Скрыть** buyrug'i—oynalardan birontasini xotirada saqlagan holda ekrandan yo'qotadi. **Показать** buyrug'i yashiringan oynalardan ixtiyoriysini ekranga chiqarib beradi. **Разделить** buyrug'i joriy oynani to'rt qismga bo'ladi va bu qismlarning har birida ish

sahifasining alohida qismlarini ko'rish mumkin. **Закрепить область**-buyrug'i bilan ishchi sahifada ixtiyoriy ustun yoki qatorlarni o'rnatib qo'yish mumkin.

B. Excel programmasida jadvallar bilan ishlash imkoniyatlari.

Excel jadvalini hosil qilishda ma'lumotlar alohida ka-taklarga kiritiladi. Natijalarni ustun va qator belgilari bilan aniqlanadi. *Masalan, A5, V7* va hakoza. U holda kataklar **nisbiy adresli** sanaladi. Formulalar bilan ishlaganda, nusxa olish jarayonida bunday adreslar bilan ishlash ba'zan xatoliklarga olib keladi. SHuning uchun ham **absolyut** adres tushunchasi kiritilgan bo'lib, bunda ustun yoki satr belgisi oldiga \$ belgisi qo'yiladi. *Masalan, \$A5*- ustun mutlaqo o'zgarmaydi deb aytish mumkin, yoki *\$D\$12*- ham ustun, ham satr o'zgarmaydi. Kataklar diapazoni deganimizda quyidagicha belgilash qabul qilingan. U holda **Insert-Name-Define** buyrug'i bilan muloqot darchasi ochiladi. Unda ixtiyoriy nom berilib **OK** tugmachasi bosiladi. SHunda katak muayyan nom bilan ataladi. Jadval kataklariga ma'lumot kiritish uchun avval **“sichqoncha”** chap tugmasi bilan katak ajratiladi, so'ngra formula qatorida yana tugmachasini bosamiz. Formula qatorida ma'lumot kiritishni boshqaradigan uchta tugmacha hosil bo'ladi: **qizil krestli, yashil belgili va f_x**. Agar qizil krestli tugmacha bosilsa, ma'lumot kiritish to'xtatiladi; **f_x tugmachasiga** bosilsa, ekranda **Мастер функции** degan muloqot oynasi hosil bo'ladi.

Ma'lumotlar kiritishni 3-xil usulda amalga oshiriladi:

-Enter tugmasini bosish;

-yashil belgili tugmachada “sichqoncha” ni bosish,

-boshqa katakda turib “sichqoncha” chap tugmasini bosish.

Bundan tashqari, biz tanlagan ixtiyoriy katakka axborotlarni kiritmoqchi bo'lsak, u holda quyidagicha ish yuritamiz, ya'ni «**sichqoncha**» tugmachasini 2 marta bosish kifoya. Kataklarga yangi ma'lumotlar kiritishda yoki eskisini o'zgartirishda joriy katakka joylashtirish jarayonida katak tozalanadi, matnli kursor paydo bo'lib formula qatori faollashadi.

Excel kataklariga qanday shrift bilan ma'lumotlar kiritiladi?

Menyuning **Tools** punktidagi **Tools-Options** buyrug'i bilan ochilgan muloqot darchasi yordamida standart shrift tanlab olinadi. **Exceld**a ustun kengligini va satr balandligini o'zgartirish mumkin. Ustun kengligi **0** dan to 255gacha simvol bilan ken-gaytiriladi. Satr balandligi esa **0** dan to 409 punktga. Ustun kengligi va satr balandligini o'zgartirishning 2 xil usuli mavjud bo'lib, ular:

- kursorni ustun sarlavhasining o'ng tomoniga qo'yib chegarani chaproqqa yoki o'ngga **“Drag-and-Drop”** usuli bilan surish,

- satr balandligini o'zgartirish uchun esa kursorni satr sarlavhasini pastki chegarasiga qo'yib (ko'rsatkich qora krest shaklida bo'ladi) yuqoriga yoki quyi tomon suriladi.

Bordiyu, biror katak kengligini yoki satr balandligini tezda o'zgartirish lozim bo'lib qolsa, u holda **Format-Column-Width** yoki **Format-Row-Height** buyruqlaridan foydalanilishga to'g'ri keladi. Elektron jadval ixtiyoriy katagiga sonlarni, formula va matnli axborotlarni kiritish mumkin.

Excel axborot turlarini qanday ajratadi, degan savol tug'ilishi mumkin.

Javob quyidagicha:

Sonlar	Matnli	Formula
257	A,145,2	=KU 2
-145.2	V145,2	=A2+C3*F7
4.89E +04	A1 QA2	=A1 +A2

Jadval ustida ishlash. Jadvalning ixtiyoriy katagini ajra-tish uchun “sichqoncha” chap tugmachasini bosish lozim. Uni siljitish uchun esa klaviaturaning chap, o'ng, yuqori va pastga qaratilgan tug-machalarini ishga solamiz. Jadval kataklarini chap va o'ngga, yuqo-riga va pastga siljitish mumkin. Ishchi sahifalarini siljitish uchun holat satrida ish yuritiladi. Jadval elementlarini oniy (mgnovenno) aniqlash uchun Excel menyusining «Pravka» punktiga kirib GO TO buyrug'i orqali ish yuritimiz. Qidirilayotgan katak nomi bo'lsa, u holda Excel oynasining «Formula qatori»dagi nomlar ro'yhatidan qidiriladi. Jadval fragmentlari (satrlar, ustunlar yoki bloklar bo'yicha) ajratilishi uchun “sichqoncha” tugmasini ishga solib birinchi katak o'z holatida qolganlarini esa qora rangda ifodalaymiz. *Masalan*, 3Rx5C (Row, Column). Keyinchalik ajratilgan fragment ustida biror joyga o'rnatish, nusxasini olish, formatlash va yo'qotish buyruqlari orqali ish yuritimiz. Buning uchun esa «Standart» panel piktogrammalaridan foydalanamiz.

Jadval kataklarini tozalash uchun menyuning Edit punkti orqali Clear buyrug'i bilan ish bajaramiz, yoki klaviaturaning Delete tugmachasini ishlatamiz. Jadval kataklarini o'rnatish va yo'qotish (olib tashlash) uchun menyuning Insert punkti orqali ish yuritimiz

Insert – Cells, Insert –Columns, Insert – Rows.

Jadval kataklaridagi axborotlarni yo'qotish uchun esa menyuning Edit punktiga kirib Delete buyrug'ini ishga solamiz. Katakdagi axborotlarni siljitish, nusxa olish va fragmentlarini o'rnatish uchun “Стандарт” panelning Cut, Copy, Paste piktogrammalaridan foydalanamiz. Jadvalning ixtiyoriy kataklaridagi axborotlarni qi-dirish uchun Edit-Find buyrug'idan, almashtirish uchun esa Edit-Replace buyruqlaridan foydalanamiz. Jadval kataklaridagi axbo-rotlarni bekor qilish va qaytarish uchun “Стандарт” panelning maxsus piktogrammalaridan foydalaniladi.

C. Jadvalda hisoblash operatsiyalari

Elektron jadvalda formula ifodasi turlicha bo'lishi mumkin. *Masalan*, matn, vaqt, davr va turlicha matematik ifodalar. Formulaning asosiy ajratadigan belgisi “q” (**tenglik belgisi**). *Masalan*, q A7 Q5 *V8

Maълumki, elektron jadvalda bir qator funktsiyalar ishlatiladi, ularning majmuini f bilan belgilanib “**Funktsiyalar ustasi**” (“**Мастер функций**”) deb ataladi va u “Стандарт” panelda o'z piktogrammasiga ega. Demak, ushbu piktogrammani faollashtirsak, ikkita darchadan iborat muloqot oynasi paydo bo'ladi: funktsiyalar kategoriyasi va funktsiyalar nomi. Bunda funktsiyalar kategoriyasiga matematik, statistik, iqtisodiy, informatsion, mantiqiy va boshqa bir qator funktsiyalar kirsak,

funktsiyalar nomida esa har bir kategoriyaga mansub funktsiyalar kiradi. Ushbu **“Funktsiyalar ustasi”** ni ishlatish texnologiyasi quyidagicha:

- funktsiyalar kategoriyasidan kerakli funktsiya tanlab olinadi,

Next >(shag >) tugmachasi bosiladi. SHunda ekranda yangi muloqot oynasi paydo bo'ladi. Ushbu oynada funktsiya argumentini tanlab olamiz va **“Финиш”** tugmasini bosamiz. U holda tanlagan argument bo'yicha funktsiya qiymati chiqadi.

Formulalar kiritish. Katak adresini kiritilayotgan formula ustiga «sichqoncha» chap tugmasini bosish bilan aniqlaymiz. *Masalan,* qo'lda q **S6QS7** ifodani terib o'tirmay, quyidagicha ish yuritamiz:

a) **“Q” belgisini kiritamiz;**

b) **S 6 katagida «sichqoncha» tugmasini bosamiz;**

v) **«Q» belgisini kiritamiz;**

g) **S 7 katakda «sichqoncha» tugmasi bosiladi.**


Standart paneldagi f_x belgili piktogramma yordamida ekranda funktsiya masteri (**master funktsiy**) muloqot oynasi paydo bo'ladi. Uning yordamida ixtiyoriy funktsiya bilan ish yuritish mumkin. Arifmetik amallarni bajarish **uchun Σ** piktogrammasidan foydalaniladi.

Excel da tayyor formulalarni ham turdosh kataklarga gorizontal va vertikal o'rnatishda ko'chirish mumkin. Gorizontal yo'nalishlar chap tomonga faqat birgina katakka ko'chirilsa, har bir ustun nomeri bittaga kamayadi. Vertikal yo'nalishda esa qator nomeri birga o'zgaradi. Xuddi shu usulda oraliq kataklarda ham son va matnlardan nusxa ko'chirishni davom ettirish mumkin.

Absolyut adreslar ustida ishlash ham **Exceld**a bajariladigan ishlarda xatolikka o'rin qoldirmaydi, chunki ustun yoki qator belgisi oldiga qo'yilgan **\$** belgisi himoya vositasini o'taydi.

D. Microsoft excel programmasida diagrammalar bilan ishlash imkoniyatlari.


Excelda tayyorlangan hujjat to'la-to'kis ifodalanishi uchun elektron jadval tarkibiga diagrammani ham kiritish mumkin. **Exceld**a turli diagrammalar chizadigan



diagrammalar Ustasi (master diagramm) mavjud. Buning uchun menyuning **Инсерт** punktiga kirib **Chart** buyrug'i bilan ish yuritiladi, yoki **«Стандарт»** paneldagi **ChartWizard** piktogrammasi orqali amalga oshiriladi, ya'ni avval diagramma uchun ma'lumotlarni kiritish zarur. Bunda, birinchidan, interval ko'rsatilishi kerak, ikkinchidan, ishchi sahifada

axborotning o'zgarish sohasini ajratish lozim. Keyin «**sichqoncha**» tugmasini **Next** tugmasida bosiladi. Ikkinchi qadamda diagramma turini tanlanadi va uchinchi qadamga o'tiladi. Uchinchi qadamda esa diagramma formati tanlanadi, oxiri **Финиш** tugmasiga bosiladi, diagramma tashkil qilinadi va hujjatda paydo bo'ladi.

Jadvalni avtoformatlash. EJ ni yanada ixcham tashkil qilish usullaridan biri-bu



avtoformat funksiyasini ishlatish. Bu funktsiya yordamida **EJ** avtomatik ajratuvchi chiziq'larga, sarlavhalar rangli va matn alohida ko'rinishda ifodalanadi. Bunday natijaga erishish uchun avval jadvalni **ajratish** kerak, so'ngra menyuning «**Format**» punktida «**Avtoformat**» buyrug'i qo'zg'otiladi va ekranda muloqot oynasi hosil bo'ladi.

Muloqot oynasining «**Jadval formati**» maydonida kerakli «**Formatni**» tanlanadi va **OK** tugmasi bosiladi. Agarda «**Parametr**» tugmasi bosilsa, u holda o'zingiz xoxlagan tarzda **EJ**ni formatlash imkoniyatiga ega bo'lasiz.

Ob'ektni kiritish. Excel da tayyorlangan hujjatga biror ob'ekt (masalan, **Word**dagi matn, **Corel Draw**da tasviriy ob'ekt)ni kiritmoqchi bo'lsak, u holda menyuning **Инсерт** punktida **Объект** buyrug'ini ishga solamiz. Ekranda muloqot oynasi hosil bo'ladi. Ikki xil variantda ob'ektni **EJ** ga kiritish mumkin:

- biror muxarrirni chaqirib ob'ekt tashkil qilish;
- biror fayldagi tayyor ob'ektni kiritish.

Birinchi variant-yangi ob'ektni kiritish uchun muxarrir turini (muloqot oynasidagi «**tip ob'ekta**» maydonidan) tanlab **OK** tugmasi bosiladi. Ob'ekt tashkil qilingandan keyin muxar-rirdan chiqish lozim.

Ikkinchi variant - diskdagi biror faylda ob'ekt bo'lsa, xuddi shu ob'ekt **EJ** ga kiritiladi. Tabiiy, bu holda hech qanday muxarrirga muxtojlik yo'q.

Nazorat savollari

1. Excel ni ishga tushirish.
2. Excel ni menyu bo'limlari vazifasi.
3. Excel da matnni, raqamni va funktsiyani qanday ajratadi?
4. Excel oynasi elementlari nimalardan iborat?
5. Klaviaturadan foydalaniladigan asosiy tugmalar vazifasi qaysilar?
6. Excel ning nisbiy va absolyut kataklarini ifodalash.
7. Excel da matnni, raqamni va funktsiyani qanday ajratadi?
8. Excel da jadvalni formatlash va avtoformatlash jarayoni qanday bajariladi?
9. Excel da saralash va filtrlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?

10. Excelning qo'shimcha imkoniyatlari qanday
11. Excelning nisbiy va absolyut kataklarini ifodalash.
12. Funksiya va funksiyalar ustasi deganda nimani tushunasiz?
13. Excelda qanday xatoliklar mavjud?
14. Excelda formulalar qanday tashkil qilinadi?
15. Excelning diagramma imkoniyatlarini tushuntiring.
16. Excelda diagramma qanday usullar bilan tashkil qilinadi?
17. Excelda 2 va 3 o'lchamli diagrammalarni qanday tashkil qilinadi?
18. Diagramma tomonlariga ranglarni qanday tanlanadi?

Mavzu:Multimediyaning asosiy tushungasi. Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari

Reja:

1. Multimedia tushunchasi. Multimedia imkoniyatlari.
2. Multimedianing axborot ta'minoti.
3. Multimedianing texnik ta'minoti. Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari


Axborotning vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Ichki omil- bu axborotlarning paydo bo'lishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va x.k.lar kirs

Tashqi omilga - axborot texnologiyasining texnika-sukunaviy vositalari orqali axborotlari bilan turli vazifalarni amalga oshirilishini bildiradi.

Kundalik turmushda turli xildagi axborotlarni uzatish yoki qabul qilishga duch kelamiz. Masalan: matnli, grafikli, jadvalli, ovozli, rasmi, video va boshqalardir.

Axborotning o'z vaqtida kelishi va o'z vaqtida bajaruvchilarga yuborilishi, ya'ni tezkorligi ham juda muhimdir. U boshqaruv jarayonining, binobarin, ishlab chiqarishning uzluksiz borishiga yordam beradi, shuningdek, dastlabki axborotni boshqarish turli maqsadlar uchun oson o'zgarish, undan boshqaruvning barcha



bo'g'inlarida foydalanish mumkinligi, axborotning uzil-kesil ishlanishi, undan qo'shimcha ishlov bermasdan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Axborotlarni turli vositalar orqali qabul qilish, qayta ishlash hamda uzatish mumkin. Barcha turdagi vositalar jamnlanmasi ham o'z o'rnida yangi texnologiyani tashkil etadi.

Mul'timedia (multi – ko'p, media – muhit) – bu kompyuter texnologiyalarining soxasi bo'lib, turli axborot saqlovchi vositalaridagi turli fizik ko'rinishda ifodalangan axborotlarga ishlov beradi.

Multimedia texnologiyasi bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz.



Multimedia vositalari – bu foydalanuvchi tovush, video, grafika, matn, animatsiya yordamida muloqotda bo'ladigan apparat va dasturiy vositalarning yig'indisi.



Multimediali taqdimot – bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktir jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin



Multimedia mahsuloti – tarkibiga musiqa taralishi, videokliplar, animatsiya, kartinalar va slaydlar galereyasi, turli ma'lumotlar bazalari kirishi mumkin bo'lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulot.



Demak, multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma'lumotlarni o'zlashtirish shinasining o'tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig'imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;
- "inson-kompyuter" interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob'ektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada

ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida Jaxon Valyuta Fondi, Umumjaxon banki, Yevropa Ittifoki komissiyasi kabi nufuzli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar. Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan seminar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor ishonch xosil qildik. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovordir.

O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Bulardan eng asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter dasturlarini ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Xozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'qdir. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

Distant uslubi asosida o'quvchilarni o'qitish xozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va o'quvchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniyesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni o'zlash kanallarini rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlarini va biznes bilan shug'ullanayotgan kompaniyalarni distant uslubi asosida birlashtirilsa, o'qitish jarayonini va tijorat ishlarini yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi.

Distant uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

- audiokonferensiyalar ;
- videokonferensiyalar ;
- ish stolidagi videokonferensiyalar ;
- elektron konferensiyalar ;
- ovoz kommunikatsiyalari ;
- ikki tomonlama sputnik aloqa ;
- virtual borliq ;

Nointeraktiv texnologiyalar:

- bosib chiqarilgan materiallar;
- audiokassetalar;
- videokassetalar;
- bir tomonlama sputnik aloqa;
- televizion va radio ko'rsatuvlari;
- disketa va CD-ROM lar.

Avvalombor, distant uslubi asosida o'qitish, jugrofiy jihatdan o'zoqda joylashgan maktablar va akademik ta'lim uchun mo'ljallangan edi. Lekin, zamonaviy axborotlar va telekommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi tabiiy ta'lim-tarbiya jarayonini o'zoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada distant uslubi asosida o'qitish, tez vaqt ichida ko'pgina maktablarda, tijoratchilar ichida va ishlab chiqarish korxonalarida keng qo'llanila boshladi va o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Distant uslubi asosida o'qitishning Xalqaro kengashining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda jahonda 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda. AQSH da shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda. Shunday qilib, ular milliy kadrlarni zamon talabi asosida tayyorlash va qayta tayyorlash uchun olga qadam qo'yishmoqda.

Distant uslubining qo'yidagi afzalliklari mavjuddir:

a) o'qitishning ijodiy muxiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi ilm tolibini o'qitadi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi. Taklif qilinayotgan distant metodi asosida esa o'quvchilarning o'zlari kompyuterlar asosida axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va albatta o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan elektron tarmoqlari asosida almashadi. Bu esa o'quvchilarni boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va o'z o'rnida bunday mexnat ta'lim olishni rag'batlantiradi.

